

“DISKURS” TADQIQI DOIRASIDAGI QARASHLAR

D.X. Madazizova, FarDUkatta’o‘qituvchi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikning dolzarb mavzularidan biri bo‘lgan “diskurs” tarixi haqida so‘z yuritilgan.*

Annotation: *This article is about the history of "discourse", which is one of the current topics of modern linguistics.*

Аннотация: *В данной статье говорится об истории «дискурса», которая является одной из актуальных тем современного языкознания.*

Kalitso‘zlar: *diskurs, gumanitarsoha, tilshunoslik, termin, muhokama, muzokora, fikrqilmoq, fikrnibayonetmoq.*

Key words: *discourse, the field of humanitarian, linguistics, term, discussion, negotiation, to think, to express an opinion.*

Ключевые слова: *дискурс, гуманитарные науки, лингвистика, термин, дискуссия, переговоры, думать, выразить мнение.*

Jamiyatning gumanitar va ijtimoiy sohalarini rivojlanishi insonlarning til bilish va til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini tobora orttirib, ularni ikki yoki kop’proq tillarni bilishlarini taqozo etmoqda va bunday rivojlanishlar o‘z navbatida har qanday tilning leksik va sintaktik birliklar doirasini faol kengayib, rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda. Tillarning shiddat bilan to‘xtovsiz rivojlanishi gumanitar fanlar sohasida diskur syoki diskurs tahlili mavzusiga oid tadqiqotlarning ortib borayotganini ko‘z atish mumkin. Diskurs mavzusi turli soha vakillarini, jumladan, filologlarni turli auditoriyalarda tillarni chuqur o‘rgatishga, psixologlarni insonlarning ruhiy holatini kuzatishga, siyosatchilar e’tiborini esa ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi farqlarni o‘rganishga undaydi. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, so‘nggi yillarda diskurs nafaqat tilshunoslik, balkipsixologiya, siyosat, sotsiologiya, madaniyatshunoslik va boshqa fanlarning ham tadqiqot ob’ektiga aylandi. Bir qator dissertatsiya va ilmiy

konferentsiyalarda taqdim etilgan ma'ruzalardan olingan ma'lumotlar "diskurs" terminini tushunishda hozirgacha uning (diskurs) uchun umumiy qabul qilingan ta'rif mavjud emasligini ko'rsatadi. Diskurs etimologiyasi o'rganilganda uning kelib chiqishida 2 xil nazariya mavjud bo'lib, birinchi nazariyada uning lotin tilidan va ikkinchi nazariyada esa uning fransuz tilidan olinganligiga guvoh bo'lamiz. Lotin tilidan olinganligini tasdiqlovchi nazariyaning o'zida ham 2 xil qarshifikrlarni ko'zatish mumkin. Masalan, "Ensiklopedii epistemologiyasi va filosofiyasi" ("Энциклопедия эпистемологии и философии науки") nomli ensiklopediyada "diskurs" termini lotincha "discurrere" dan kelib chiqib "muhokama", "muzokora" va "o'zaro aytishib qolish" ma'nolarni anglatgan, boshqa bir falsafiy terminlar lug'ati "Kratkiy slovar filosofskix terminov" ("Краткий словарь философских терминов") da esa "diskurs" termini lotin tilidan olinganligi va "fikrqilmoq, fikr yurgizmoq, fikrni bayon etmoq, fikrni tushuntirish, fikrni isbotlashga o'rinmoq" kabi ma'nolarni anglatgani ko'rsatilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, atamaning kelib chiqishining bir nechta sanab o'tilgan variantlari bir vaqtning o'zida paydo bolgan bo'lishi mumkin. Lekin, bu so'zlar o'rtasida ma'lum bir farq larni kuzatish mumkin. Masalan birinchi guruhga ajratilgan lotincha so'zlar "discurrere" so'z turkimidan otga xos. Ikkinchi nazariyada esa diskursni lotincha "discere" (daydimoq) fe'l so'z turkimidan olinganligi ko'rsatilgan.

"Diskurs" terminining etimologiyasiga oid yana bir umumiy nazariya uning fransuz tilidagi "discours" so'zidan kelib chiqqanligini va "nutq", "fikrlash", so'zlovchi, ya'ni (bayonot muallifi) dan tinglovchiga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish kabi ma'nolarni anglatib xat ,matn , bayonot turi" deb talqin etiladi. ([Alternativnaya kultura: ensiklopediya 2005; Literaturaiyazik. Sovremennaya Ensiklopediya 2006; Slovar terminov I ponyatiy testologii 2000; Lingvisticheskiy ensiklopedicheskiy slovar 1990:136-137]).

Lugʻatlarda berilgan taʼriflarga koʻra, zamonaviy tilshunoslik, madaniyatshunoslik, va adabiyotshunoslikda "diskurs" termini asosan fransuz tilidan kelib chiqishi bilan bogʻliq boʻlgan semantik asos va xususiyatlarga ega degan xulosaga kelishimiz mumkin.

“Diskurs”ning fanlar doirasida oʻrganilish tarixiga nazar solinsa, u birinchi boʻlib falsafiy fanlar doirasida XVII-XVIII -aslarda paydo boʻla boshlangan. Tilshunoslikda esa u yaqin tarixga ega, yaʼni XX asrning 2-yarmida tilshunoslik sohasidagi jadal izlanishlar natijasida vujudga kelgan bir qancha yangi terminlar qatorida “diskurs” termini ham vujud gakeldi. Yuqorida taʼkidlanganidek bu termin birinchi falsafa fani doirasida va keyinchalik boshqa fanlarda, jumladan, tilshunoslikning ham predmetiga aylandi. Shuni taʼkidlash joizki, bu termin bir sohadan ikkinchi sohaga oʻtganda uning talqini va maʼnosida sezilarli oʻzgarishlar vujudga keladi. Shu munosabat bilan, uning taʼrifi boʻyicha umumiy qabul qilingan nazariya mavjud emas, shuning uchun ham bu masala hali ham ochiq deb hisoblanadi vahali ham muhokama qilishni talab qiladi.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Brown, G & Yule, G. (1983). *Discourse Analysis*. Cambridge: Cambridge University Press.
2. “Ensiklopedii epistemologii i filosofii nauki”
(“Энциклопедии эпистемологии и философии науки” Институт философии РАН). <https://phras.ru>.
3. Gee, J.P. (2018). *Introducing Discourse Analysis: From Grammar to Society*. London: Routledge.
4. “Kratkiy slovar filosofskix terminov”
(“Краткий словарь философских терминов”) «Философия XX века Краткий Словарь Философских Терминов» philsci.univ.kiev.ua
5. Habibiloyevna, M. D. (2021). The Semantic Analysis of Slang in The Movie “School”. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 3, 83-85.

6. Habibloevna, M. D. (2022). THE CONCEPT OF" DISCOURSE" IN THE INTERPRETATION OF FOREIGN LINGUISTS. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 7, 89-92.